



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKACI CI OLIY VA
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKACI CI ВЕТЕРИНАРИЯ ВА
ЧОРВАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ҚЎМИТАСИ

САМАРҚАНД ВЕТЕРИНАРИЯ МЕДИЦИНАСИ ИНСТИТУТИ

ЧОРВАЧИЛИК ҲАМДА ВЕТЕРИНАРИЯ СОҲАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ВА МУАММОЛАР

Республика илмий-амалий конференция материаллари

I қисм

22-24 май, 2019 йил



Рахмонов У.А., Аликулов З. Товуқларда гиповитаминозларнинг кечиш хусусиятлари	186
Дускулов В.М., Ибрагимов Ф.Б., Арзимуrowда Р., Арзиева О. Асалари зараркунандаси ва унга қарши курашиш чоралари	188
Ибрагимов А.Т., Ибрагимов Ф.Б., Қулманов Б.П., Насимова Д. Самарқанд вилоятининг турли туман ҳудудларида етиштирилаётган асални таркибий жиҳатидан таққослаш	191
Исламов Ғ.П. Тейлериозни даволашда Бупорвалек доривор-воситасининг самарадорлиги	193
Яхшиева С.Х., Кўзибоева Ў., Эшбуриев Б.М. Маҳсулдор соғин сигирларда маститларнинг этиологияси ва характерли клиник белгилари	195
Ҳақбердиев П.С., Худайназаров И.Х., Эргашев Ҳ. Қорамол пироплазмидиозларини даволаш ва олдини олиш	197
Хамроқулов Н.Ш., Кулиев Б.А., Эшбуриев С.Б. Сигирларда марганец ва рух етишмовчилигини олдини олишда профилактик воситаларнинг клиник-гематологик кўрсаткичларга таъсири	200
Эшматов Ғ.Х., Хурсанов Р.Х. Коврак донини куёнлар серпушлигига ва клиник кўрсаткичларига таъсири	202
Дилмуродов Н.Б., Худойназарова Н.Э. Суяклар таркибидаги табиий намлик миқдорига ҳайвонлар яшаш шароитининг таъсири	205
Рўзикулов Н.Б., Асқаров С., Камолова А. Кетонурия касаллиги пайтида қоракўл совлиқларқонининг морфологик ва биокимёвий кўрсаткичлари	208
Бобоев О.Р., Исмоилов А., Тоиров А. Сигирларда кальций-фосфор алмашинувини мўътадиллаштириш сари	210
Бектанова Ҳ.Н., Ибрагимов Б.Х., Норбоев Қ.Н. Бузоқлар Д гиповитаминозининг этиологияси ва клиник белгилари	213
Ботирова Ш.А., Сидиков Б.Т., Эшбуриев Б.М. Бузоқлар анемиясининг этиологияси, патогенези ва клиникаси	216
Нурмухамедов Б.М., Рахмонов Ў.А., Мақсудов М.Р. Радиацион хавфсизлик	218
Салимова И.Ю. Замонавий инсектицид препаратларининг таснифланиши ва улар таъсиридаги токсик хусусиятлар	220
Тайлаков Т.И. Эчкилар монезиозини тарқалиши ва унга қарши янги антгельминтикларнинг самарадорлигини ўрганиш	223
Эшматов Ғ.Х. Ferula assafoetida ўсимлиги дони билан озиклантирилган қоракўл кўйлари қонининг морфологик кўрсаткичлари	226
Маматова З.Б., Тоирова Ч. Асаларилар паратифи	228
Saydaliev D., Boysinova N., To'raqulov A. Transportda veterinariya sanitariyasi	231
Ibragimov B.X., Karimov M.G., Raxmonov D.A. Itlarning gastroenterit kasalligini davolash usullarini takomillashtirish	232
Насимов Ш.Н, Сувонова З.А., Бердиев Х.Р. Шахсий секторда парранда эймериози эпизотологиясининг мониторинги ва профилактикаси	235
Мейлиев С.С., Сулайманова Н.А. Эшбуриев С.Б. Асалариларда кўп учрайдиган касалликлар ва олдини олиш	237
Эшқувватов Х.Х., Кушманов Д.Ш., Алибаев С.К., НиёзовХ.Б. Зотли қорамоллар бармоқ ва туёқларининг йирингли яллиғланиш жараёнларини даволашнинг самарали усуллари	239
Усмонов Ғ.И., Журамуродов Ж.Ф., Эшбуриев Б.М. Сигирларда мис етишмовчилигининг этиопатогенези, характерли белгилари ва қондаги морфобиокимёвий ўзгаришлар	242
Эргашова Ш.И., Сафин М.Г., Эшимов Д.Э. Аспекты возникновения дефицита меди у овец	245

mo'ljallangan maxsus joyga jo'natiladi. Ishlov berish turi ob'jektning veterinariya - sanitariya holatidan kelib chiqib tanlanadi. Shu belgilariga qarab temir yo'l vagonlari va kemalar 3 ta toifa (kategoriya) ga ajratiladi.

1-toifaga sog'lom hududdan olib kelingan sog'lom hayvonlar, go'sht va texnik xom ashyolar tashilgan vagon yoki kemalar kiradi. Bu toifadagi vagonlar ifloslanishlardan tozalanib qaynoq suv bilan yaxshilab yuviladi.

2-toifaga keyingi 3-toifadagi kasalliklardan boshqa kasalliklar bilan kasallangan yoki gumon qilingan hayvonlar tashilgan vagon yoki kemalar kiradi. Bu toifaga tashilgan hayvonlar orasida o'lim kuzatilgan yoki go'sht va xom ashyolar ko'rsatilgan kasalliklar qo'zg'atuvchilari bilan zararlangani aniqlangan transport vositalari ham kiradi. 2-toifa vagonlar yaxshilab tozalangach va yuvilgach xlorli ohak, formaldegid yoki o'yuvchi natriyning issiq eritmalari bilan dezinfeksiya qilinadi.

3-toifaga kuydirgi, qorason, manqa, qoqshol, bradzot, epizootik limfangoit, ornitoz qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan hayvonlar jasadlari, chorvachilik xom ashyolari, qushxonada tayyorlanmagan teri xom ashyolari, kuydirgi kasalligiga tekshirilmagan suyak yoki import qilingan chorvachilik xom ashyosi tashilgan vagon va kemalar kiradi. Bu toifa vagonlar devorining ichki yuzasiga vagonga mutaxassislar kirishidan oldin dezinfeksiya vositalaridan biri bilan ishlov beriladi. Keyin vagonlar maxsus tayyorlangan xodimlar tomonidan mexanik tozalanadi. Shundan so'ng aniqlangan kasallikka qarshi kurashish bo'yicha yoriqnomada ko'rsatilgan zararsizlantirish vositasi bilan dezinfeksiya o'tkaziladi.

Temir yo'lda vagonlarini dezinfektsiyalash uchun dezinfeksiya yuvish punkti (DPP) va dezinfeksiya yuvish stansiyalari (DPS) tashkil etilgan. Ikkalasining bir-biridan farqi dezinfeksiya yuvish stansii (DPS) da oqova suvlarni tozalash inshoati mavjud bo'ladi. Shu boisdan 3-toifaga kiritilgan vagonlar shu joyda dezinfeksiya qilinadi. Yuklash va tushurish maydonlari har bir operatsiyadan so'ng yaxshilab tozalanadi, agarda yuqumli kasalliklar aniqlanish holatlari qayd etilgan bo'lsa, unda dezinfeksiya o'tkaziladi.

Xulosa:

1. Transportda tashish uchun faqat sog'lom hayvonlar, sog'lom chorva mahsulotlari va xom ashyolari yuqumli kasalliklar bo'yicha sog'lom bo'lgan hududdan yuklanishi va ta'shilishi mumkin.

2. Hayvonlar, chorvachilik xom ashyosi, go'sht va boshqa chorvachilik mahsulotlardan bo'shagan transport vositalari veterinariya - sanitariya holatidan kelib chiqib 3 ta toifa (kategoriya)ga ajratiladi.

3. Transport vositasida 2- va 3-toifaga kiritilgan yuqumli kasalliklarga chalingan hayvonlar, ularning qo'zg'atuvchilari bilan zararlangan mahsulot yoki xom ashyolar aniqlansa u holda dezinfeksiya shu kasallikka qarshi kurashish bo'yicha yoriqnomada ko'rsatilgan zararsizlantirish vositasi bilan o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.А. Поляков., Ветеринарная санитария, Москва 1979. Стр. 132-143
2. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" Darslik., Toshkent. 2016., 82-85 betlar.
3. Saydaliyev D.I. va boshq. Zoogigiyena va veterinariya sanitariyasi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy qo'llanma, S. 2019. 92-95 betlar.
4. Глушков А. и др.. Ветеринарная санитария, Учебник для вузов, Изд. "Лань", 2011., Стр. 201-203

619.636.2+577.1+591.13+616.

ITLARNING GASTROENTERIT KASALLIGINI DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov B.X. Karimov M.G., Talaba Raxmonov D.A.

SamVMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada itlarning gastroenterit bilan kasallanishi oqibatida, kasalligining sabablari, kechish xususiyatlari, simptomatikasi, ertachi tashxis klinik o'zgarishlar, davolash va oldini usullarini takomillashtirish maqsadida tajribalar o'tkazilib natejalar olinadi.

Annatation. This article provides data on the causes of dogs gastroenteritis a study of the course of the disease symptoms and diagnostics and also describes improved treatment methods.

Kirish. Itlarda ekto va endo faktorlar ta'siri natejasida gastroenterit bilan kasallanishi oqibatida kasallikning rivojlanishida yitishmovchiliklar kuzatilishi, tana vaznining nisbatan kichik bo'lishi va tana vazni kunlik o'sishining pasayishi, shuningdek, itlar orasida gastroenterit kasallikning rivojlanish mexanizmlari, simptomatikasi va diagnostikasi, davolash va oldini olish usullarini o'rganish maqsadga.

Ishning maqsadi: Itlarda gastroenterit kasalligining sabablari, kechish xususiyatlari, simptomatikasi, ertachi tashxis qo'yish organizm o'zgarishlarni o'rganish va davolash usullarini takomillashtirish maqsadida tajribalar o'tkazildi.

Material va uslublar. Itlar gastroenteritni davolash usullarini takomillashtirish buyicha ilmiy tadqiqotlarimiz Samarqand viloyati Ishtixon tumani "Usta Abduvali bobo" fermer xo'jaligida 4 yillardan buyon ferma itxonasida 11-14 bosh itlar saqlanib qorovullik xizmatini bajaradilar. Veterinariya hisobotlariga ko'ra, 2014 yilda ular 6 bosh, 2015 yilda 9 va 2016 yilda 11 bosh saqlangan. Bu xo'jalikda 2015 yildan boshlab itlarda gastroenteriti qayd etilishi, oqibatida 2014 yilda 2 ta, 2015 yilda 4 ta va 2016 yilda 6 ta it xizmatidan chetlashtirilgan.

Bu ma'lumotlar, xo'jalikdagi itlardalarda gastroenterit oqibatida iqtisodiy zarar keltirilayotganligini ko'rsatib, kasalliklar tufayli iqtisodiy zarar ulardan olingan 9 ta it yil davomida olingan bolalari o'sishdan qolishi, ularning boshqa kasalliklarga tez beriluvchan bo'lishi, veterinariya tadbirlari uchun harajatlarning ko'payishi hamda itlar tomonidan xizmatni bajara olmasligi bilan xarakterlanadi.

Bizning fikrimiz bo'yicha kasallik sababi fermerga qarashli "Marxamat", oshxonadan oziqa chiqindilari bilan boqilishidir. Bazan "kechagi-buzilgan-aynigan" oziqa chiqindilarni istemol qilishi, tarkibida itlar organizmiga talab etiladagan moddalar va vitaminlarning etishmovchiligi gastroenteritni sababchisi bo'lishi aniqlandi. Oldingi davolashlarda "Gentamitsin 4%" dori vositasi qo'llangan edi, lekin kasallik itlarda bir oy mobaynida qaytalandi. Shu sababli biz "Enrofloksatsin 50" dori bositasini ta'sirini o'rganish maqsadida belgilangan me'yorda qo'lladik.

Natijalar va muxokama. Itlarda gastroenteritni davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish maqsadida guruhli profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Xo'jalikdagi sutdan chiqarilgan 3 oyli it bolalaridan 8 bosh ajratib olinib, «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida 4 boshdan ikki guruhga bo'lindi, birinchisi tajriba va ikkinchisi nazorat guruhi deb belgilandi, Ratsion tarkibi xar ikkala guruhda bir xil bo'ldi.

Klinik va gematologik tekshirishlar itlarada tajriba boshi, o'rtasida va amalga oshirildi. Klinik tekshirishlaridan tana harorati, puls va nafas soni, teri qoplamasi, ishtaha, shilliq pardalar holati o'rganildi. Taroziiga tirik vazni individual o'lchanib tana vaznining tajriba boshida va ohirida o'zgarishlari aniqlandi.

Hayvonlar organizmida modda almashinuvi darajasini aniqlash maqsadida har bir it bolasining bilak venasidan qon namunasi olinib morfologik va biokimyoviy ko'rsatgichlari aniqlandi.

Qonda eritrotsitlar soni (Goryaev sanoq to'rida), gemoglobin (Sali gemometrida), glyukoza (Orto-toluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usuli), ishqoriy zahira (I.P.Kondraksin usuli) miqdori tekshirildi.

Tajribadagi hayvonlarning oziqa ratsioni tekshirilib, shu asosda guruhli profilaktik terapiya vositalari tanlandi. Tajriba guruhidagi itlar guruxli davolovchi vosita sifatida bir boshga bir sutkada 1 marta 2 ml «Gentomitsin-10%» dori vositasi, jami 4 marta muskul orasiga in'eksiya qilindi. Nazorat guruhidagi itlarni davolovchi vosita sifatida bir boshga bir sutkada 1 marta 2 ml «Enrofloksatsin-50» dori vositasi qo'llanildi. Ikkala gurux itlari faqat xo'jalikda qabul qilingan ratsion asosida kuniga ikki marta boqildi va bog'lab saqlandi. Suv xoxlagancha berildi.

Adabiyot ma'lumotlaridan ma'lumki itlar oziqa ratsionida, oziqa chiqindilari, pishirilgan maxsulotlari, bazida o'tgan kundan qoldiqlari bilan boqish me'da muhitining kislotali muxitiga o'zgarishi, mikrofloralar faoliyatining buzilishiga sabab bo'ladi, natijada antibakterial sintezlanish buzilish jarayoni aniqlandi.

Nazorat guruhidagi it bolalarining tana harorati tajribalar davomida deyarli o'zgarmagan bo'lsada, boshqa klinik ko'rsatkichlari boshlang'ich ko'rsatkichlarga nisbatan yomonlashib borishi qayd qilindi.

Nafas soni bir daqiqada bu guruhda tajriba boshida 28,9 martani tashkil etgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib, bu ko'rsatkich o'rtacha 84,6 martaga teng bo'ldi, ya'ni nafas soni o'rtacha 5,7 martaga tezlashganligi aniqlandi. Yurak urishi soni bir daqiqada nazorat guruhidagi hayvonlarda tajriba boshida o'rtacha 70,6 martani tashkil etgan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib pasayib borishi aniqlandi, ya'ni tajribalar oxiriga kelib o'rtacha 66,8 martani tashkil etdi. Tajribalar boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 7,8 martaga kamaydi.

Tajribalarning oxiriga kelib, tajribadagi itlarda dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan qonidagi eritrotsitlar sonining 1,2 mln/mkl.ga, gemoglobinni – 23,1 g/l, glyukozani – 0,94 mmol/l, umumiy oqsilni – 10,2 g/l va ishqoriy zaxira 1,9% ko'payishi qayd etildi. Bu guruhdagi itlarda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining ko'payishi glyukoza, umumiy oqsil miqdorining ortishi organizmda modda almashinuvining yaxshilanishidan dalolat beradi.

Nazorat guruhidagi itlarda tajribalarning oxiriga kelib, qonidagi eritrotsitlar sonini dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha – 0,42 mln/mkl, gemoglobinning – 3,2 g/l, glyukozaning – $1,67 \pm 0,05$ va $1,54 \pm 0,06$ mmol/l atrofida bo'lishi, umumiy oqsil miqdorining – 2,8 g/l ishqoriy zaxtrani 2,4% kamayishi qayd etildi. Bu guruhdagi itlarda qonning morfofiokimyoviy ko'rsatkichlarining yomonlashib borishini itlar organizmining to'yimli moddalar, vitaminlar va mineral moddalarga nisbatan bo'lgan ehtiyojlarini yuqori ekanligi, moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan izohlaymiz.

Gastroenterit kasalliklarning dastlabki klinik belgilari: semizlik darajasining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi, ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalarning oqarishi va ich ketishi. qayd etildi.

Tajriba guruhidagi itlarda tajribalarning oxiriga kelib tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan klinik fiziologik statusning va qonning morfofiokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini, qo'llanilgan vositalarning, organizmga ijobiy ta'siri natijasida moddalar almashinuv jarayonlari fiziologik me'yorlar chegarasida ekanligi bilan izoxlaymiz. Nazorat guruxidagi itlarda kasallik belgilari qayta namoyon bulganligi sababli edi . 2bosh itda kayta davolash tadbirlari takrorlandi.

Xulosalar. 1. Gastroenterit kasalliklarining asosiy sabablari oziqa ratsionini trkibining buzilishi kislotali muxitga ega oziqalarning ko'pligi, tuyimli moddalarning me'yoriy ko'rsatkichlardan pastligi, ratsionda qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatining pastligi sabab bo'ladi.

2. Gastroenterit kasalliklari itlarda ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalarning oqarishi, teri qoplamasi yaltiroqlikning yo'qolishi, me'da strukturalarining buzilishi, o'sish va rivojlanishdan qolish, vaznni yuqotilishi kabi belgilar nomoyon bo'ladi.

3. Kasallangan itlarning gemotologik kursatkichlari qondagi eritrotsitlar soni, gemoglobin, umumiy oqsil, glyukoza, ishqoriy zahirasining kamayishi bilan tavsiflanadi.

4. Itlarning oziqa ratsioni tarkibida, sifati, makrova va mikro elementlari bilan organizm ehtiyojini qondirilish, darajasini o'rganishda, klinik va gemotologik tekshirishlar o'tkazish tavsiya etiladi.

5. Gastroenterit bilan kasallangan it bolalariga qo'llanilgan Gentamitsin-10% kasallikning qaytalanishiga sabab bo'ldi. Muskul orasiga, kuniga bir marta 2 mlmiqdorda qo'llanilgan Enrofloksatsin-50 yaxshi nateja beradi va qaytalashi kuzatilmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Bakirov B. "Hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlari va gigar kasalliklari". Monografiya. Samarqand 2016.

2. Ибрагимов Х.З., Ибрагимов Б.Х. Справочник по внутренним незаразным болезням сельскохозяйственных животных. Узбекистан, 1993.

3. Кондрахин.И.П., Лысенко В.П. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М. Изд.ООО «Аквариум-принт. 2005.

4. Norboev K.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Samarkand. 2007.

5. Norboev K.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Yosh hayvonlar yuqumsiz kasalliklarning patologiyasi va terapiyasi. Uquv qo'llanma. Samarkand 2006.

6. <http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcements/Veterinar/2009/15-06/Koba I.S.doc>.

7. Internet ma'lumoti: <http://www.zooprice.com/articles/detail>

УДК: 619:636.5.576.89

ШАХСИЙ СЕКТОРДА ПАРРАНДА ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗОТОЛОГИЯСИНИНГ МОНИТОРИНГИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ

Насимов Ш.Н, Сувонова З.А., Бердиев Х.Р.

Самарқанд ветеринария медицинаси институти

Аннотация. Аҳоли хонадонларида боқилаётган паррадалар орасида эймериоз касаллигининг мониторинги, даволаш ва олдини олиш чора-тадбирлари. Даволашда ампролиум гидрохлорид ва толтрозурил фаол таъсир этувчи моддалардан ишлаб чиқарилган препаратларнинг самарадорлик натижаларини аниқлаш.

Калит сўзлар. жўжа, парранда, ооциста, копрологик, толтрозурил, ампролиум гидрохлорид, АДВ, субстанция

Кириш. Мамлакатимизда паррандачилик ва уларнинг маҳсулдорлигини ошириш бўйича муҳим чора – тадбирлар амалга оширилмоқда, хусусан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 ноябрдаги ПҚ-4015 сонли қарорларида барча вилоятлар ва туманлар кесимида парранда бош сонини ошириш прогноз режаси ва уларни озиқага бўлган талаб миқдорини таъминлаш рақамлар билан тасдиқланган. Шунингдек, паррандачиликни ривожлантиришда, иқтисодий ислохотлар ўтказишда йирик паррандачилик саноат корхоналари, фермер хўжаликлари билан бирга аҳоли қармоғидаги паррандаларга ҳам эътиборни ошириш лозим. Паррандачилик саноат корхоналари ва фермер хўжаликларидаги паррандаларда учрайдиган касалликларнинг олдини олишда режали ветеринария-санитария тадбирлари тўлиқ амалга оширилади. Аҳоли қармоғидаги паррандаларда эса вазият талаб даражасида эмас. Ерда, тўшама усулида боқиладиган паррандаларда турли хил паразитар касалликлар билан бирга эймериоз (кокцидиоз) касаллиги доимий учраб туради ва катта зарар етказди. Эймериоз - товуклар ва бошқа кишлоқ хўжалик паррандаларининг айниқса 1-40 кунлик жўжаларнинг ўткир ва сурункали оқимда кечувчи протозооз касаллиги бўлиб, улар кеча турдаги эймерияларни ингичка ва йугон бўлим ичакларининг эпителиал қўلاقчаларида паразитлик қилиши оқибатида кўзгатилади ва иштахасизланиш, чанкаш, ич қониқ, анемиянинг ривожланиши натижасида кўплаб жўжаларнинг nobud бўлиши билан характерланади [1]. Республикаимизнинг паррандалар ерда ва алмашмайдиган тўшамалар заронида асраладиган товукчилик хўжаликларидаги 1-3 ойлик жўжалар орасида эймериознинг тарқалиш даражаси 57,4-79,1% ни ташкил этиши қайд этилган, вақтида даволаш ишларининг ўтказилмаслиги оқибатида иккиламчи инфекция касалликларга ҳам олиниши мумкин. Натижада катта иқтисодий зарар кузатилиб, 15-40% гача ўлим ҳолати, 25-35% гача ўсиш ва ривожланишдан ортда қолиши, ёш товукларнинг кечикиб тухум қилиши, бройлер гўшти сифатининг пасайиши, ем сарфининг кўпайиши ҳамда озиқанинг парранда организмда нотўлиқ ўзлаштирилиши билан ифодаланади [2].

Тадқиқот мақсади. Аҳоли қармоғида бўлган паррандаларнинг табиий шaroitда эймериоз билан зарарланиш даражасини ўрганиш, аниқлаш ва даволашда ампролиум гидрохлорид ва толтрозурил фаол таъсир этувчи моддаларидан ишлаб чиқарилган кокцидиостатик ветеринария препаратларидан фойдаланиш.